

# **TISS Inkubatsiya markazimizning ochilish marosimiga taklif etamiz!**

*Turinchilar, sizning orangizda o'z startapini ochishni istaganlar bormi?*

Aynan sizlar uchun IT Park bilan birgalikda biz universitetimizda birinchi inkubatsiya markazini ishga tushirmoqdamiz.

**23 oktyabr soat 11:00 da barchangizni inkubatsiya markazimizning onlayn ochilish marosimiga taklif etamiz!**

Marosimda quyidagi insonlar ishtirok etadi:

- **Jamshid Inoyatxo'jaev**, universitetimiz rektori;
- Abdulahad Qo'chqarov**, IT Park'ning startap ekosistemalarni rivojlantirish yo'nalishibo'yicha direktor o'rinbosari;
- **Muslimbek Pirnazarov**, TPUT qoshidagi inkubatsiya markazi direktori va Turin Invest Soft Solution asoschisi.

Shuningdek, tadbirimizning maxsus mehmoni – O'zbekistonda innovatsion rivojlanish vazirining o'rinbosari **Olimjon To'ychiev**, u O'zbekistondagi startaplarni rivojlantirish va bu boradagi shaxsiy tajribasi haqida gapirib beradi.

Markaz tadbirkorlikni dastlabki bosqichlarda qo'llab-quvvatlashga va loyihalarni ishlab chiqish uchun zarur resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratishga qaratilgan inkubatsiya dasturlarini o'tkazadi.

***Inkubatsiya dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan ishtirokchilarga 10,000,000 so'm miqdorida pul mukofoti beriladi.***

Qiziqdingizmi?

***You Tube kanalimizga o'ting va qo'ng'iroqchani bosing:***  
<https://www.youtube.com/channel/UCM-cCXdzsTitH6QS-BWQJAA>

Tez orada ochilish marosimi bo'lib o'tadi!

**The opening is coming soon!**

- [Website Tiss – Incubation center](#)
- [Geolocation](#)

Follow us on social medias: □

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [YouTube](#) | [Telegram](#)